

??????Murodxon ibn Olimxon



Murodxon ibn Olimxon

(?-1845)

(1845 yil 7 kun)

Minglar sulolasidan bo'lgan Qo'qon xoni. **Olimxonning** o'g'li. Isfara hokimi Sotiboldi dodxoh Qo'qon xoni **Sheralixonga** qarshi fitna uyuştiradi, bu ishga Murodxon ham tortiladi. Ular Musulmonql mingboshi qirg'izlar isyonini bostirish uchun ketganidan foydalanib xonni asirga oladilar va Murodxonni **xon** deb e'lom qiladilar. 3 kundan so'ng Sheralixon o'ldirilgan, saroyi talanib, o'g'llari qamoqqa olingan. Qo'qon aholisi taxt o'zgarishidan norozi edi, buning ustiga yangi xon o'zini Buxoro amirining noibi deb e'lom qilgan. Musulmonql bu voqeadan xabardor bo'lib o'z qabiladoshlari bo'lgan qipchoqlarni to'plab, Murodxonga qarshi hujum qilgan. Ular Namangan begi **Xudoyorxonni** o'zlari bilan olib kelishadi. Qipchoqlar uni oq kigizga o'tqazib xon qilib ko'taradilar. Musulmonql qo'shini Murodxonning qirg'izlardan iborat unchalik katta bo'limgan qoshinini tezlik bilan yengib, o'rdaсини egallab oladi va atigi 7 kun xon bo'lgan Murodxon qatl etiladi.

2023-11-24 10:56:25